



ESTETIZMNING FOJEAVIYLIK, KULGULILIK, XUNUKLIK KATEGORIYALARI

Abdug'ofir Qosimov Abdukarimovich

Farg'ona davlat universiteti tilshunoslik kafedrası
professori, filologiya fanlar doktori
kasimov0824@amail.com

Abdurashidova Shohsanamxon To'liqinboy qizi

Farg'ona davlat universiteti lingvistika (ingliz tili) yo'nalishi 21-06
guruh magistranti
abdurashidovashohsanam94@gmail.com

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-May 2023 yil

Ma'qullandi: 15-May 2023 yil

Nashr qilindi: 18-May 2023 yil

KEY WORDS

Estetizm, go'zallik, ulug'vorlik, fojeaviylik, kulgulilik, xunuklik, estetik qarashlar, estetik muammolar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada hozirgi zamon estetizmning fojeaviylik, kulgulilik, xunuklik kategoriyalari hamda estetik kategoriyalar haqidagi olim va mutaffakirlarning qarashlari haqida so'z boradi.

1.3.3. Estetik tizimning fojeaviylik, kulgulilik, xunuklik kategoriyalari.

Fojiaviylik estetika kategoriyalari orasida ulug'vorlik bilan qator yaqinlikka ega. Haqiqiy ulug'vorlik fojiaviylikning davomi, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Shu bois estetikasida fojiaviylik kategoriyasining ulug'vorlik kategoriyasidan keyin o'rganilishi bejiz emas. Ulug'vorlikning barcha xususiyatlari fojiaviylikning ham u yoki bu ko'rinishi orqali namoyon bo'ladi. Fojiaviylik mezoniy tushunchasining estetikasidagi markaziy muammosi - insonning imkoniyatlarini har tomonlama kengaytirish (san'at, badiiy adabiyot, jamiyat va tabatga nisbatan munosabatda), qahramonlik, buyuklik tushunchalarining qat'iy va o'zgarmas chegaralarini buzib, uning mohiyatini yanada yaqinlashish, tashabbuskor va bunyodkorlikni rag'batlantirish, hayotda umidvorlik va unga muhabbat tuyg'ularini rivojlantirishdan iboratdir. Fojeiy qahramon kelajakka yo'l tashlaydi, u eskirgan chegaralarni daf etadi. U doimo insoniyat kurashining oldida yuradi.

Fojeaviylik muammosi har doim falsafiy va estetik tafakkur sohiblarining e'tiborini jalb qilib kelgan. Deyarli barcha ulkan ijodkorlar yaratgan asarlarda fojeali ohanglar mavjudligini juda ko'p misollarda ko'rib chiqishimiz mumkin. Masalan, M. Shayxzodaning «Jaloliddin Manguberdi» va «Mirzo Ulug'bek» asarlarida fojeali ohanglar boshdan oxiriga qadar sezilib turadi.

San'atda fojea va fojeiy qahramon obrazini ifodalash qo'yidagi jihatlar bilan belgilanadi:

- ❖ fojeiy asar hayot va ijtimoiy aloqalarni qamrab olishi va real tasvirlashi;
- ❖ inson shaxsini to'laqonli ravishda ifodalashi;
- ❖ davrining yorqin insonparvar orzulari bilan axloq qoidalari o'rtasidagi to'qnashuvning natijasini yoritishi;

- ❖ kuchli, jasoratli, g'ururli, erkparvar inson timsolini barqaror o'rnatishi;
- ❖ insoniy idealga intilish va unga bo'lgan ishonchning mustahkamligi.

Bunyodkor g'oyalarning tarafdorlari doimo hayotni o'zlashtirish, o'lim havfini qisqartirish haqida o'ylab kelgan. O'lim qayg'usidan farqli o'laroq fojiiy qayg'u - iztirobning maxsus ko'rinishi bo'lib, u ulug'vorlikning yo'qolib borishi bilan bog'liq, u hayotning yo'qolishi yoki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan tarixiy voqelikning barbod bo'lishidir.

Fojeaviylikning yana bir xususiyati shundaki, u insonga borliqning mazmunini ochib berishda yaqindan ko'mak beradi. Shaxs rivoji jamiyat va insoniyat o'rtasidagi munosabatga bog'liq ekanligini, jamiyat taraqqiyoti inson hisobiga emas, balki inson va inson orqali rivojlanishi zarurligi bevosita fojiaiylik tushunchasi orqali yanada konkretlashtiriladi. Bu esa pirovardida inson va insoniyat muammolarini insonparvarlik yo'li bilan xal etishga olib keladi.

Fojiaiylikda jamiyat va insoniyatning ezguligini himoya qiluvchi xususiyat mujassam. Mahmud Torobiy qo'zg'aloni natijasiz tugashi, uning o'zi esa fitna qurboni bo'lishi ajdodlarimiz qismatidagi fojiadir. Mahmud Torobiy g'anim qo'lida emas, o'z qavmidan chiqqan - nurga emas, zulmatga talpingan kaltabin johil Olovxon Yusuf qo'lida halok bo'ladi. Biroq, Torobiy timsolidagi fojia xiyonat, sotqinlik, diyonatsizlik, zulm va zo'ravonlik boshidan kechirgan va unga qarshi kurashgan millat, xalq va Vatan fojiasidir. Yoki istiqlol muqaddas tutgan, o'lkaning milliy, diniy zaminidagi taraqqiyot uchun kurashgan va xalq orasidagi g'oyat katta mavqega ega bo'lgan jadid ma'rifatchilarining fojiasi ham jamiyatni to'qimtabiat «muhabbat»dan xalos etishning natijasi edi.

Estetika kategoriyasi sifatida fojia dramatik ongning shakli va shaxsning uning mavjudligiga tahdid soluvchi va muhim ma'naviy qadriyatlarining o'limiga olib keladigan kuchlar bilan to'qnashuv tajribasini anglatadi. Fojia odamning unga dushman kuchlar yuki ostida passiv azob chekishini emas, balki taqdirga qarshi isyon ko'targan va u bilan kurashayotgan odamning erkin faol faoliyatini nazarda tutadi. Fojiada inson o'z mavjudligining tanqidiy, keskin bir lahzasida paydo bo'ladi.

Fojiali harakatning predmeti yuksak maqsadlarga erishishga intilayotgan qahramon shaxsni nazarda tutadi, shuning uchun fojia toifasi ulug'vorlar toifasi bilan chambarchas bog'liq. Katarsis kategoriyasi faqat dramatik san'at sohasi bilan bog'liq bo'lmagan, balki umuman san'atning ijtimoiy - psixologik ta'siri bilan bog'liq bo'lgan kengroq ma'noga ega bo'lgan fojeaviylikdan ajralmasdir.

Fojia haqidagi g'oya dramatik san'atning bir turi sifatida drama nazariyasi va tor ma'noda tragediya nazariyasi bilan bog'liq holda shakllangan. San'atda birinchi tizimli ishlab chiqilgan fojia tushunchasi antik davrga borib taqaladi. Aristotel «Poetika» asarida ko'p asrlar davomida nafaqat janrning asosiy ta'rifiga, balki tragediyaning o'ziga xos kategoriyasini belgilashga asos bo'lgan tragediyaga ta'rif beradi. «Tragediya muhim va to'liq harakatga taqlid qilishdir... rahm - shafqat va qo'rquv orqali bunday ta'sirlardan tozalaydigan hikoya emas, balki harakat orqali». Aristotelning tragediya va fojia kategoriyasi haqidagi ta'limoti ko'p asrlar davomida tadqiqot va sharhlar ob'ekti bo'lib kelgan, hozir ham o'zining nazariy ahamiyatini yo'qotmagan.

O'rta asrlarda fojining o'ziga xos tushunchasi yaratilmagan, inson tuyg'ularining gunohkorligi muammosiga e'tibor qaratgan va ularni tozalash faqat diniy asketizm orqali tushunilgan. Uyg'onish davrida Aristotelning «Poetikasi» qayta ochildi, unga ko'plab sharhlar va Aristotel taqlidlari yaratildi. Klassizm estetikasi dramatik san'at janrlarining aniq

bo'linishini va katarsisning axloqiy kontseptsiyasini ishlab chiqdi, bu an'ana teatrda axloq maktabini ko'rgan ma'rifatchilar tomonidan davom ettirildi. Masalan, Lessing qo'rquv va shafqatni fojining asosiy ko'rinishlari deb hisoblagan va uni axloqiy poklanish deb talqin qilgan.

Shiller uchun fojining asosi insonning axloqiy va hissiy tabiatining ziddiyatidir. U o'zining «Fojeali san'at haqida» maqolasida fojiali his - tuyg'ular asosida quyidagi shartlar yotadi, deb yozgan.

Birinchidan, rahm - shafqatimiz ob'ekti so'zning to'liq ma'nosida bizga bog'liq bo'lishi va rahm - shafqatga sabab bo'lishi kerak bo'lgan harakat axloqiy, ya'ni erkin bo'lishi kerak.

Ikkinchidan, azob - uqubat, uning manbalari va darajalari bir - biriga bog'langan voqealar silsilasi shaklida bizga to'liq etkazilishi kerak.

Uchinchidan, u rivoyatda tasvirlanmagan, balki bizga to'g'ridan - to'g'ri harakat sifatida taqdim etilgan holda, hissiy tarzda takrorlanishi kerak.

Nemis klassik estetikasi fojiani tushunishni tarixiylik tamoyili asosida tarixiy jarayonning qonuniyatlari va ratsionallik g'oyasidan izohladi. Shelling uchun fojining mohiyati erkinlik va zaruriyat dialektikasida yotadi, bu dialektika Gegelning fojea haqidagi kengaytirilgan ta'limotida ishlab chiqilgan. Gegel fojiani ijtimoiy zaruriy soha bilan bog'ladi. Uning fikricha, fojia tasodifiy, sof individuallik bilan emas, balki zaruriylik sohasi bilan bog'liq. Fojining mazmuni axloq sohasi bo'lib, u rasmiy axloq sifatida emas, balki haqiqiy mohiyat sifatida tushuniladi, buning uchun inson xatti - harakati o'ziga xos ko'rinishdir. Gegel fuqarolik hayotini barcha qarama - qarshiliklari bilan ideal ruhiy tamoyilning namoyon bo'lishi sifatida talqin qildi.

Keyinchalik fojia mohiyatini anglashda subyektivizm va pessimizm lahzalari kuchayadi. Shopengauer va Nitsche fojiani tushunishning asoslarini tuzishgan. Shopengauer fojiani ko'r va asossiz irodaning o'z - o'zidan paydo bo'lishi deb talqin qildi. «Fojada hayotning butun dahshatli tomonlari ko'z o'ngimizda chaqnaydi - insoniyat qayg'usi, tasodif va xato hukmronligi, solihlarning o'limi, yovuzlarning g'alabasi - boshqacha aytganda, fojia bizning ko'z o'ngimizga o'sha bizning irodamizga bevosita dushman bo'lgan dunyo xususiyatlarni ko'rsatadi. Va bu tomosha bizni yashash istagidan voz kechishga undaydi, bu hayot uni sevishdan to'xtashini istamaydi.

Nitsche uchun tragediya madaniyatdagi Dionisiylik va Apolonistik tamoyillar o'rtasidagi kurashdan tug'iladi, fojining o'zi esa mantiqsiz, mast qiluvchi xaotik tamoyilning timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Tragikning irratsional talqini ekzistensializm estetikasiga ham xosdir.

Ekzistensializmning peshqadamlaridan birining fikricha, fojiali konflikt yechilmaydi va insonning umidsizligini ifodalash bilan bog'liq.

Estetik tafakkur tarixida kulgililik bir qadar keng o'rganilgan. Jumladan, Aflotun ojiz va layoqatsizlarni kulgili odamlar, deydi. Arastu fikricha, kulgi ayrim xatoliklar hamda kishilarga ozor yetkazmaydigan va zarar keltirmaydigan xunuklikni keltirib chiqaradi. Insondagi badjahllik, suskashlik, ziqnalik, subutsizlik, izzattalablik, shuhratparastlik kabi illatlar kulgililik uchun ob'ekt bo'ladi.

O'rta asrlarga kelib kulgililikka insonning Xudoga bo'lgan e'tiqodini susaytiruvchi vosita sifatida qaraldi. Xususan, bu davrda «Islom dini kulgini inkor etadi», - degan fikrlar ham

yuzaga keldi. Aslida esa Islom dinining muqaddas manbalarida kulgi va kulgililik ulug'lanadi: hadislarda «**Kuldiruvchi ham, yig'latuvchi ham Olloh taolodir**!» - deyiladi.

Kulgililik boshqa nafosatli hodisalar singari faqat ob'ektiv tomonga ega bo'lmay, sub'ektiv tomonlarni ham o'zida birlashtiradi. Kulgililikning sub'ektiv tomoni - keng ma'nodagi hazil (yumor) tuyg'usidir. (Moler hazil tuyg'usini insonni hayvondan ajratib turadigan xususiyati deb atagan edi.) Hazil - insonlararo munosabatlarni tabiiy va erkin idrok etishi, turli beo'xshov ziddiyatlarni anglagan xolda ularga nisbatan oqilona kulgi bilan javob berish qobiliyatidir.

Kulgi tabiatan demokratik mazmunga ega bo'lib, barcha odamlarni bir - biriga qovushtirib baravarlashtiradi, chunki kulishayotgan odamlar o'zaro tenglashadilar. Kulgi eskilik bilan kurashning omilkor vositasigina bo'lib qolmay, balki insonning kuch - qudrati va ozodligi timsoli hamdir. Kulgi beqiyos rang - baranglik, xilma - xil qirralarga ega bo'lib, mayin, rag'batlantiruvchi, hushfe'l hazil tuyg'usidan tortib, to ayovsiz achchiq istehzogacha bo'lgan keng doirada amal qiladi.

Xajviya - jamiyat, inson faoliyatidagi illatlar va ularning oqibatlarini, olam mukammalligi va inson ideallariga nomuvofiq kelishini ko'rsatib beruvchi kulgi turidir. Lekin mashara, mazax kabi kulgi turlari ham borki, ular estetik tarbiya vositasi bo'lolmaydi. Aksincha, ular mohiyatan insonni qoralashga, [uni hafa qilishga](#), obro'sizlantirishga qaratilgan bo'ladi. Bu kulgining o'ta ziddiyatli va g'ayriaxloqiy ko'rinishidir. SHu bois mashara fisqu - fasodning muqaddimasi sanaladi. Mazah qilish ibosiz so'z bilan insonga daxl etmoq demakdir. Mazah qilish, kalaka qilish, o'zganing ustidan, jismoniy kamchiligidan kulish masharaning real voqelikdagi ko'rinishlaridir.

Umuman olganda, estetikaning mezoniy tushunchalari (kategoriyalari)ni bir - biri bilan doimiy hamkorlikda mustahkamlanib boradi. Ayniqsa, bu jarayonda go'zallik kategoriyasi bog'lovchi vazifasini bajaradi. Shuning uchun fojiaiviylikda, ulug'vorlikda, xunuklikda ham go'zallik unsurlarining uchrashi bejiz emas.

Tabiat haqida gap ketganda, «tabiatni asrash», hatto «tabiatni qutqarish» degan so'zlarni tez - tez eshitamiz. Xo'sh, tabiatni kimdan asrash va qutqarish kerak? Odamdan, jamiyatdan. Demak, odam, markschilar ta'riflaganidek, tabiatning bir qismi emas, uni odam bir - birini bo'ysundirganidek bo'ysundirishi, «olamni o'zgartirishi» mumkin emas. Aks holda oxir - oqibat insoniyat, hayvonot va nabotot dunyosi halokatga mahkum etilishi muqarrar.

Keyingi bir asr mobaynida inson tafakkurining qudrati, fan - texnika taraqqiyoti jahonning deyarli barcha sivilizatsiyalashgan mamlakatlarida landshaftning (er yuzi manzarasining) o'zgarishiga, buzilishiga olib keldi. Masalan, birgina suv omborlarini olib ko'raylik. Hozirgi paytda minglab kvadrat kilometr takrorlanmas landshaft suv ostida qolib ketdi. Vaholanki, landshaft hayvonlar, qushlar, o'simliklar, suv, tuproq kabi qit'aviy xazinalarining uyg'unligidir. Biz esa tabiatga bo'lgan xudbinlarcha munosabatimiz, unga qornimizni to'ydiradigan, hayotimizni farovon qiladigan vosita deb qarashimiz tufayli ana shu uyg'unlikni muntazam ravishda buzib kelmoqdamiz.

Biz tabiatni nutqlarimizda, she'rlarimizda, maqolalarimizda «Ona - tabiat» deb ataymiz. Darhaqiqat, tobimiz qochsa, shifokorlar bizga bahavo, shaffof suvli tabiat qo'ynida joylashgan oromgohlarga borishni, kimsasiz daryo bo'ylaridagi butazorlar orasida chodir qurib, bir muddat tashvishlardan forig' yashashni tavsiya etadilar.

Shahar shovqinlaridan, mehnatdan, axborotlar siquvidan charchaganimizda, jamoa bilan yoki oilaviy tarzda shanba yo yakshanba kuni tabiat qo'yniga chiqib dam olamiz. Toliqsak, doim «onamiz» qo'yniga intilamiz, ona - tabiat bizni davolaydi, go'zalligi bilan hayratlantiradi, ruhlantiradi. Lekin bir - ikki kundan so'ng yana hammasini unutamiz, tag'in tabiatga bir xizmatkordek qaraymiz. Nega shunday? Chunki biz uni tushunmaymiz, uni bilmaymiz. Shu sababli biror bir odamning yaxshi yoki yomonligiga asl sabablar nimaligini, uning mohiyatini bilmaganimiz, tushunmaganimiz uchun «falonchining tabiati o'zi shunaqa», yoki muayyan hayvon yoxud o'simlikning sir - sanoatidan bexabarligimiz tufayli uni «tabiatan o'zi shunday» deyish bilan muammoga nuqta qo'yamiz. Zero tabiat olamiy kubromi (katta olammi), olami sug'romi (kichik olammi), ya'ni odammi, u - sirli, uni lozim darajada tushunmaymiz va bilmaymiz. Har qancha ekologiyaga e'tibor qilmaylik, uni fan sifatida zo'r berib o'qitmaylik, baribir tabiatni tushunishimiz qiyin, zotan ekologiya tabiatni asrashni, qutqarishni, boyitishni targ'ib qiladi. Biroq ularning hammasiga faqat estetika yordamida, uning ekologiya bilan hamkorligida erishish mumkin. Chunki estetika insonga tabiatni sevishni, uning go'zalligiga beg'araz munosabatda bo'lishni o'rgatadi, ya'ni tabiatni faqat odamlar uchun yaratilgan deb emas, uni jamiyatdan tashqaridagi umumolamiy mustaqil qadriyat sifatida idrok etishni taqozo qiladi.

Ha, tabiat go'zallik va ulug'vorlik manbai, lekin faqat inson uchungina shunday emas. Masalan, bulbul tunda, odamlar uxlaganda sayraydi, namozshomgul va ba'zi boshqa gullar faqat qorong'u tushayotgan paytdan boshlab ochiladi. Demak, hayvonlarni, o'tloqlarni, daraxtlarni, daryolarni, tog'larni faqat «biz uchun» deb emas, «biz uchun ham» deb tushunishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.A.Kokovkina. Estetizm ijtimoiy falsafaning prinsipi sifatida (kontseptual tushuntirish) (K.N.Leontievning ijtimoiy modeli qoidalari) - Avtoreferat. Vladivostok - 2000 yil.
2. V.V.Ippolitova. «Philosophical bases of English aestheticism». Maqola. UDK 821.111.01. Jurnal - «Вестник СПбГУКИ». 143-146-betlar. 2011 yil, sentyabr.
3. M.M.Baxtin. «Эстетика словесного искусства» / М. М. Бактин. - М., 1979-yil. 221-bet.
4. D.Yakovlev. «Моралиста и эстети» / D. Yakovlev. - М., 1998-yil.
5. N.Y.Abramovich. «Эстетизм и эстетика» // Obrazovanie. 1908. - № 4 (otd. 2).-S. 73-108-betlar.
6. N.Y.Abramovich. «Религия красоты и страдания»: O.Uayld i Dostoevskiy. SPB.: Posev, 1909-yil. 88 -betlar.